

ZARAFSHON VOHASINI KOMPLEKS INNOVATSION
RIVOJLANTIRISH YUTUQLARI, MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI
V-XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI

MATERIALLARI



PROCEEDINGS

OF THE V-INTERNATIONAL CONFERENCE ON
INTEGRATED INNOVATIVE DEVELOPMENT OF ZARAFSHAN
REGION: ACHIEVEMENTS, CHALLENGES AND PROSPECTS

Volume II

18-19 April, 2024
Navoi, Uzbekistan

ZARAFSHON VOHASINI KOMPLEKS INNOVATSION
RIVOJLANTIRISH YUTUQLARI, MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI
V-XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI

MATERIALLARI

PROCEEDINGS

OF THE V-INTERNATIONAL CONFERENCE ON
INTEGRATED INNOVATIVE DEVELOPMENT OF ZARAFSHAN REGION:
ACHIEVEMENTS, CHALLENGES AND PROSPECTS

18-19 April, 2024
Navoi, Uzbekistan

Volume II



BUXORO KO'CHALARIDA AVTOMOBIL TEXNIKASI QACHONDAN QATNAY BOSHLAGAN EDI

Sh.A.Hayitov, H.Y.Hasanova

Buxoro Davlat Universitet

Annotatsiya. Mazkur maqolada Turkiston mintaqasida xususan, BXSР da quruqlik transportida sodir bo'lgan texnik yangiliklar, xususan avtomobil texnikasining qachondan kirib kelganligi, ularning turlari va markalari hamda ulardan foydalanish bo'yicha ma'lumotlar o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar. Transport texnikasi, foytun aroba, avtomobil, "Reno", "Pejo", "Bens", "Fort" rusumli yengil avtomobillar,

Kirish

Mustaqillik yillarida Turkiston mintaqasi va Buxoro tarixining XIX asr oxiri – XX asr birinchi choragi tarixiy xronologik chegarasi davrini o'rganish borasida bir qator tadqiqotlar yaratildi. Bunday ilmiy izlanishlar sirasiga jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-maishiy hayotida muhim rol o'ynaydigan transport texnik vositalari haqida ham arxiv manbalari, davriy matbuot materiallari orqali bizga noma'lum ma'lumotlar berilayotgan ishlarni ham kiritish mumkin.

Ma'lumki, biz yashab turgan mintaqa XIX asr so'nggi choragi va XX asr boshlarida jahon sivilizatsiyasida ortda qolgan, texnik yangiliklar Yevropadan Rossiya imperiyasi orqali sekinlik bilan kirib kelayotgan edi.

Metodologiya

Masalaning o'rganilganlik darajasini tahlil etar ekanmiz, Professor, tarixchi olim S.B.Shodmonova o'zining bir qator maqolalarida va doktorlik dissertatsiyasi yuzasidan 2011 yilda chop ettirgan "Turkiston tarixi matbuot ko'z'gusida (1870-1917 yillar)" nomli monografiyasida Turkiston general-gubernatorligining markazi Toshkent shahriga 1910 yillardan boshlab Yevropada ishlab chiqarilgan "Pejo", "Reno" (Fransiya), "Bens" (Germaniya), "Fort" markali yengil avtomobillarning o'z davri uchun "Mo'jiza" hisoblangan ilk markalari kirib kelganligini rus va mahalliy tillarda o'sha davrda chop etilgan davriy matbuot xabar va maqolalari orqali bayon etgan. Hatto, ushbu avtomobillar Toshkent shahri ko'chalarida va Toshkent shahar atrofidagi qishloqlarda belgilangan marshrutlar bo'ylab qatnaganligi, ular foytunli arobalardan tex yurishi va aholini arzon ko'zlangan maqsadiga yetkazishi haqida ma'lumotlar mavjud[1].

Buxoro amirligi hududiga esa birinchi avtomobil texnikasi qachon kirib kelganligi va Eski Buxoro shahrida dastlab yengil avtomobillar qachondan boshlab qatnay boshlaganligi albatta, har bir kishida qiziqish uyg'otishi tabiiy holdir.

Buxoroda ilk bor bosmaxona usuli orqali dunyo yuzini ko'rgan gazeta "Buxoroi-sharif" hisoblanib, ushbu matbuot organi fors tojik tilida Yangi Buxoro (Kogon) da Levin bosmaxonasida chop etilgan. Gazetaning 53 ta soni 1912-1913 yillarda bosilgan. Ushbu gazetaning 1912yil sonlaridan birida[2] Karmana (Hozirgi Navoiy viloyatida)da Amir Abdulahadxon (hukumronligi 1885-1910 yy) Rossiyada o'qigani, texnik yangiliklarga qiziqishi, aynan uning davrida Buxoroga pochta, telegraf, kinomotografiya, fotostudio, telefon kabi yangiliklar kirib kelganligi manbaalardan ma'lum. Toshkentga keltrilgan avtomobillardan birini Abdulahaddek texnik o'zgarishlarga ishtiyoqmand hukumdor uchun bittasini sotib olish muammo emasdir.

Tarixchilar tomonidan ko'p bor yozilgan Buxoro amirligidagi 1920-yil sentabrdagi "Monarxiyaga qarshi to'ntarish" tufayli, noteng janglarda yengilgan Amir Olimxon Buxorodan qochib yo'lga chiqadi. Jurnalisi va tarixchi N.Nayimov o'zining "So'ngi hukumdor" nomli tarixiy qissasida keksa onaxon, 1920-yillar voqealarining jonli guvohi Robiya Majidova tilidan quyidagilarni bayon etgan: "Bolsheviklar taqibidan Amir Olimxon qochib G'ijduvonga keldi. Amir Olimxon avtomobilda bo'lib uning oldingi o'rindig'ida

o'tirgan edi. Amir bilan avtomobilda Afg'onistonning Buxorodagi elchisi Andushukurxon, Toshkentdagi afg'on elchixonasi xodimi Muhammad Aslamxon va 2,3 ta yuqori martabali amaldorlar bo'lgan. Ular yo'lda bir keksa otaxon bilan ham muloqotda bo'lishgan. Biroq, avtomobilni yoqilg'isi tugab, yo'lning qolgan qismi otga qo'shilgan foytun arabada davom ettirilgan[3]". Ehtimol ushbu avtomobil soatiga 40-45 km tezlikda yurigan va o'z saloniga 7 kishini sig'ira oladigan Abdulahadxonning "Bens" markali avtomobilidir. Amir Olimxon 1920 yil sentabriga qadar ushbu avtomobilda o'z kuzatuvchilari bilan Buxoro ko'chalarida sayr qilganini ham tahmin qilish mumkin.

Yengil avtomobil texnikasining Buxoro ko'chalarida bo'ylab yura boshlagan dastlabki yillarni aniqlash uchun O'zbekiston Milliy Arxivi fondlariga murojaat qildik.

Natijalar

BXSR Nozirlar Kengashi raisi Fayzulla Xo'jayevga harbiy nozirlik tomonidan 1923 yil 26 fevralda yo'llangan 504-raqamli bildirish (raport) da: "Xalq Nozirlar Kengashi" hisobida bitta "Fort" yengil avtomobili mavjudligi qayd etilgan. 1923 yil bahoridan boshlab "Fort" rusumidagi avtomobillar sotib olish rejalashtirilmogda... tez paytlarda "Fort" rusumli avtomobillar Buxoroning barcha yo'llari bo'ylab harakat qila boshlaydi[4]" – deb ishonch bildirilgan. Ikkinchi bir hujjatda: "1923 yil yozida Buxoroga keltiriladigan yengil avtomobillar uchun yo'llarni asfaltlash chora-tadbirlarini ko'rish uchun maxsus ko'rsatmalar berilgan, Zaxaryanst familiyali muhandisga yo'l qurilishi materiallari yuborilganli haqida fikr bildirilgan[5]". Tahmin qilish mumkinki, 1923 yilning kuzi yoxud qishidan boshlab Eski Buxoro ko'chalarida yengil avtomobil qatnovi boshlangan. Bu fikrni 1923 yil 16 dekabrda BXSR matbuot organi "Ozod Buxoro" da bosilgan xabarlardan biri ham tasdiqlaydi. "Buxoro (Eski Buxoro) ko'chalarida tez yurigan avtomobil va foytunlar ostiga qolib o'luvchilar, oyoqsiz, qo'lsiz qoluvchilar ko'pdir. 21 noyabr (1923 yil) tez yurgan bir avtomobil Sharif Ismoil soatsozni bosib o'ldirgon[6]" – mazmunidagi xabar bosilgan. Yuqoridagi xabar noxush bo'lsada, bu xabar orqali Buxoro ko'chalarida 1923 yil oxirida bir necha sonli avtomobillar qatnaganidan bizni voqif qiladi.

Avtomobil texnikasini 1923-1924 yillarda BXSR hududiga keng tarqalganligi bilan bog'liq bir qator omillar mavjud. Birinchidan, yengil avtomobillar narxi yuqori bo'lib, ularni ko'p marta xarid qilish moliyaviy muammo tug'dirgan. Ikkinchidan BXSR hukumati yangi texnikalarni, jumladan avtomobil, samolyot, qayiq, paraxodlarni xorijdan RSFSR hukumati ruxsati bilangina xarid qila olardi. Uchinchidan, yangi texnikalar Buxoroga kirib kelishiga diniy mutaassiblik qarashlari ham ta'sir ko'rsatib, avtomobillarga "Shayton, kofir aravasi", "Shayton muxlisi" kabi salbiy qarashlar mavjud edi. To'rtinchidan, BXSRda ichki va tashqi yo'llar yengil avtomobillar qatnovi standart talablarga mutlaqo javob bermasdi va hokazo.

Shu sabablar tufayli, 1923-1924 yillarda hukumat a'zolari hamon asosan, ot qo'shilgan foytunlarda yurar, ularga ot va ot uchun ozuqa hukumat xazinasi hisobidan ta'minot qilinardi.

Xulosalar

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Buxoro amirligida ilk bor yengil avtomobil texnikasi Toshkent, Qo'qon, Skobelov (Farg'ona) kabi shaharlar bilan deyarli bir davrda kirib kelgan. BXSR yillarida esa, bir qadar takomillashgan "Fort" rusumli yengil avtomobillar tarqala boshlagan. O'zbekistonda yengil avtomobil transporti tarixini XX asr dastlabki o'n yilligidan boshlash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Shodmonova S.B. Turkiston tarixi matbuot ko'zgasida (1870-1917 yillar). – Toshkent: YANGI NASHR; 2011. – 296 bet.
- 2.Buxoroi- sharif. Xabarlar. 1912 yil, 5 sentyabr (arab imlosida fors-tojik tilida).
3. Naimov N. So'nggi hukmdor (tarixiy qissa). Buxoro: "Buxoro" nashriyoti; 2008. – B. 119-120.
- 4.O'zbekiston Milliy Arxivi (O'zMA), R-48-fond, 1-ro'yxat, 171-yig'ma jild, 70-varaq.
- 5.O'zMA; 53-fond, 1-ro'yxat, 48-yig'ma jild, 13-varaq.

A.N.Raximov	329
175. ГУБИТЕЛЬНОЕ ВЛИЯНИЕ АРАЛЬСКОГО КРИЗИСА НА ЖИЗНЕДЕЯТЕЛЬНОСТЬ РЕГИОНА А.М.Хакимов, Б.Ш.Касымов, З.А.Хакимова	331
176. ЭКОНОМИЧЕСКИЙ ЭФФЕКТ ОПТИМИЗАЦИИ ЗАТРАТ ПРИ РЕАЛИЗАЦИИ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ НА ПРИМЕРЕ ИНВЕСТИЦИОННОГО ПРОЕКТА «СТРОИТЕЛЬСТВО КОМПЛЕКСА ПО ПЕРЕРАБОТКЕ ТЕХНОГЕННЫХ ОТХОДОВ ЦКВЗ (ГМЗ-7) НГМК Х.Н.Бакоев ¹ , М.Н.Нодиров ²	333
177. ҚИЗИЛҚУМ МИНТАҚАСИДА ҚАДИМГИ КОНЧИЛИК ВА МЕТАЛЛУРГИЯ Д.А.Исмоилова, Н.О.Бердиев	334
178. ЭВОЛЮЦИЯ ПРОМЫШЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ ЗЕРАВШАНСКОГО РАЙОНА: ДОСТИЖЕНИЯ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ Дж.Э.Рустамов	336
179. ПРОМЫШЛЕННОЕ НАСЛЕДИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ВЫЗОВЫ: АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ЗЕРАВШАНСКОГО РЕГИОНА Дж.Э.Рустамов	338
180. МАРКАЗИЙ ОСИЁДА МЕТАЛЛГА ИШЛОВ БЕРИШНИНГ ПАЙДО БЎЛИШИ ВА УНИНГ АҲАМИЯТИ Д.А.Исмоилова, Н.О.Бердиев	340
181. XIX ASR OXIRI - XX ASR BOSH LARDA TURKISTONDA VELOSIPEDNING KIRIB KELISH TARIXI A.A.Ahmadov	342
182. TURKISTON JADIDLARI MINTAQADA YANGI TEXNIKALAR TARQATISHNING TARG'IBOTCHISI VA TASHABBUSKORLARI Sh.A.Nayitov, D.D.Elova	343
183. YOSHLARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI Sh.Sh.Babayarov	345
184. NUROTA TUMANIDA AMALGA OSHIRILGAN IQTISODIY ISLOHOTLARNING TARIXIY TAHLILI (2017-2024) Sh.S.Norov, M.Z. Toshpo'latov	346
185. БУХОРО ХОНЛИГИ ДАВРИ ИНШОУТЛАРИ ҚУРИЛИШИ ТАРИХИДАН Ш.Ш.Бабаярова	348
186. BUXORO KO'CHALARIDA AVTOMOBIL TEXNIKASI QACHONDAN QATNAY BOSHLAGAN EDI Sh.A.Nayitov, H.Y.Hasanova	349
187. МОЛОДЁЖНЫЕ ОРГАНИЗАЦИИ В РАЗВИТИЕ ПРОМЫШЛЕННОГО НАСЛЕДИЯ ЗАРАФШАНСКОГО ОАЗИСА Ш.С.Норов	351
188. NAVOIY VILOYATI MISOLIDA ZARAFSHON VOHASIDA SANOAT RIVOJLANISHINING TARIXIY JIHATLARI Sh.A.Xayitov ¹ , Sh.S.Norov ² , O.J.Baxriddinov ²	353
189. ЗАРАФШОН ВОҲАСИДА ҚАЗИЛМА БОЙЛИКЛАРИНИ ТОПИЛИШ ТАРИХИДАН Х. Раупов	355